

## UCHINCHI SINIF O'QUVCHILARIGA YUZ ICHIDA QO'SHISH VA AYIRISHNI OG'ZAKI USULLARINI SHAKLLANTIRISH

**Asadov N.R**

JDPU dotsenti

**Islomova U.F**

**Tursunboyeva S.A**

JDPU magistrantlari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7236533>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada mamlakatimizda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlardan biri bo'lgan kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida ishlab chiqilgan yangi avlod darsliklarida "Yuz ichida qo'shish va ayirishni o'rganish metodikasi" bo'yicha berilgan metodlar va ularning afzalliklari haqida fikr yuritiladi. Jumladan 3-sinf darsligida aks ettirilgan misollar, ularni o'rganish va o'rgatish metodikasi, mavzuni mustahkamlash uchun foydalanish mumkin bo'lgan metodlar haqida to'xtalib o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** Kadrlar tayyorlash milliy dasturi, kompetensiya, qo'shish, ayirish, yig'indi, og'zaki hisoblash, metod, metodika, bilim, ko'nikma, malaka, ta'lim, AKT, zamonaviy pedagogic texnologiyalar, yangi avlod darsliklari, kreativ fikrlash, axborotni tahlil qilish.

### ФОРМИРОВАНИЕ УСТНЫХ ПРИЕМОВ СКЛАДЫВАНИЯ И ВЫЧИТАНИЯ У УЧАЩИХСЯ ТРЕТЬЕГО КЛАССА

**Аннотация.** В данной статье освещаются методы по методике изучения сложения и вычитания в пределах сто и их преимущества, представленных в учебниках нового поколения, разработанных на основе Национальной программы подготовки кадров, осуществляемой в нашей стране как один из важных образовательных реформ, а также методы, используемые для закрепления темы по изучению задач, представленных в учебнике 3 класса.

**Ключевые слова:** Национальная программа подготовки кадров, компетенция, сложение, вычитание, сумма, вычисление устно, метод, методика, знание, навык, умение, образование, ИКТ, современные педагогические технологии, учебники нового поколения, креативное мышление, анализ информации.

### FORMING THE ORAL METHODS OF ADDITION AND SUBTRACTION WITHIN THE THIRD CLASS STUDENTS

**Abstract.** This article highlights the methods for studying addition and subtraction within one hundred and their advantages presented in new generation textbooks developed on the basis of the National Training Program implemented in our country as one of the important educational reforms, as well as the methods used to consolidate the topic for studying the tasks presented in the 3<sup>rd</sup> grade textbook.

**Keywords:** National training program, of personnel competence, addition, subtraction, sum, verbal calculation, method, methodology, knowledge, skill, ability, education, ICT, modern pedagogical technologies, new generation textbooks, creative thinking, information analysis.

**“Matematika hamma fanlarga asos. Bu fanni yaxshi bilgan bola aqlli, keng tafakkurli bo'lib o'sadi, istalgan sohada muvaffaqiyatli ishlab ketadi”.**

**SH.M.Mirziyoyev**

## KIRISH

Ta'lim bu, har qanday vaqtda, har qanday zamonda va jamiyatda eng muhim soha hisoblanadi. Mamlakatimizda ham barcha sohada yangilanish va rivojlanish davom etmoqda. Yangi O'zbekistonimizda ta'lim sohasida yangicha va o'zgacha yondashish jarayonlari sodir bo'lmoqda. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va yangi avlod darsliklari fikrimizning yaqqol misoli bo'la oladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturining asosiy maqsadlari quyidagilar hisoblanadi:

- Ilg'or tajribaga ega bo'lgan milliy va xorijiy ekspertlarni ta'lim mazmunini takomillashtirishga jalb etish;

- Ilg'or xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturi talablari va spiralsimon o'qitish metodologiyasi asosida XXI asr ko'nikmalarini rivojlantirish ;

- XXI asr ko'nikmalariga ega raqobatbardosh vatanparvar, kreativ shaxsni tarbiyalaymiz.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga to'liq joriy etish bosqichlari quyidagicha:

- ✓ 2021/2022 o'quv yilidan boshlab 1-, 2-sinflarda;
- ✓ 2022/2023 o'quv yilidan boshlab 3-, 4- va 10-sinflarda;
- ✓ 2023/2024 o'quv yilidan boshlab 5-, 6- va 11-sinflarda;
- ✓ 2024/2025 o'quv yilidan boshlab 7-, 8- va 9-sinflarda joriy qilinadi.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF – 4708 - sonli Farmoni, 2019-yil 9-iyuldagi "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4387-son Qarori"ga asoslangan holda, hamda kadrlar tayyorlash milliy dasturining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda boshlang'ich matematika dasrligi mazmuni va tuzilishiga yangiliklar kiritildi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida yaratilgan boshlang'ich sinflar matematika fanining amaldagi darsliklaridan farqli jihatlari va maqsadi:

- matematika fanini sodda va qiziqarli tilda tushintirish maqsadida fanning dasturi to'liq qayta ko'rib chiqildi;
- O'quvchilarda kundalik faoliyatda qo'llash, fanlarni o'rganish va ta'lim olishni davom ettirish uchun zarur bo'lgan matematik bilim va ko'nikmalar tizimini shakllantirish va rivojlantirish;
- jadal taraqqiy etayotgan jamiyatda muvaffaqiyatli faoliyat yurita oladigan, aniq va ravshan, tanqidiy hamda mantiqiy fikrlay oladigan shaxsni shakllantirish;
- milliy, ma'naviy va madaniy merosni qadrlash, tabiiy-moddiy resurslardan oqilona foydalanish va asrab-avaylash, matematik madaniyatni umumbashariy madaniyatning tarkibiy qismi sifatida tarbiyalashdan iborat.

## ADABIYOTLAR TAHLILI

Umumiy o'rta ta'limning kadrlar tayyorlash milliy dasturi o'quvchilarning olgan bilimlarini hayotda, amaliyotda qo'llay olish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi inobatga olinganligini 3-sinf matematika darsligidagi yangiliklardan ham bilish mumkin. Birgina "Yuz ichida qo'shish va ayirish" mavzusida sonlarni qo'shish va ayirish mavzusida o'rganish va o'rgatish metodikasiga yangicha yondashilgan. Amaldagi 3-sinf darsligida o'quvchilarga yuz ichida qo'shish va ayirish ustun shaklida yozma hisoblash ko'proq o'rgatilar edi va o'quvchilar ham hisob ishlarini ustun shaklida yozma bajarar edi. Bu usul xona birliklarini qo'shish va ayirishda amallar ketma-ketligi birliklardan boshlanishi, o'nlikdan oshib qo'shilganda va o'nlikka yetmay ayrilganda o'quvchilarda adashish yoki unutish hollari kuzatilar edi. Bu esa o'z navbatida natija xato bo'lishiga sabab bo'lar edi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturida 3-sinf matematika darsligida I bob, ya'ni "Raqamlash" bobi arifmetik amallardan ajratilgan holda o'rgatiladi. Bu ham o'quvchiga og'zaki hisoblashni hayotda qanday hisoblasak, xuddi shunday og'zaki hisoblash usulda o'rgatiladi va bu o'rganish olingan bilimlarni kundalik hayotda qo'llay olish imkonini beradi.

### Masalan:

$$\begin{array}{r} + 350 \\ + 285 \\ \hline \end{array}$$

Bunda o'quvchi yig'indini hisoblashda birliklardan qo'shishni boshlaydi. Birliklar birliklarga qo'shiladi:  $0 + 5 = 5$ , o'nliklar o'nliklarga qo'shiladi:  $5 + 8 = 13$ . O'nliklar xonasiga 3 yoziladi, 1 xotirada (dilda) saqlab keyingi yuzlar xonasiga qo'shib hisoblanadi. Keyingi yuzlar xonasida:  $3 + 2 = 5$ , 1 xotiradagi bilan 6 bo'ladi. Ya'ni natija:  $350 + 285 = 635$ . Shu o'rinda o'quvchida xonadan o'tish jarayonida yoddan chiqish, unutish holatlari kuzatiladi va natijada yig'indi xato bo'ladi. Milliy o'quv dasturida esa o'quvchilar hayotda, kundalik turmushda qanday hisoblasak, xuddi shunday hisoblash metodikasi ilgari surilgan. Yuqoridagi misolni yangi 3-sinf darsligida berilgan metodika bo'yicha amalga oshiramiz:

$$350 + 285 =$$

Dastlab o'quvchi tasavvurida qo'shiluvchilarni xona birliklariga ajratib oladi va yig'indini hisoblashni yuzliklar xonasidan boshlaydi:

$$300 + 200 = 500$$

$$50 + 80 = 130$$

$$0 + 5 = 5$$

Tasavvurida yuzlik, o'nlik va birliklarni yaxlitlab, yig'indini hisoblaydi, ya'ni:

$$500 + 130 + 5 =$$

Bu jarayonda 500 va 130 sonlarini qo'shib, keyin 5 ni qo'shadi:

$$(500 + 130) + 5 = 630 + 5 = 635$$

Endi ayirish amalini ko'rib chiqamiz. Dastlab amaldagi darslikdagi ustun shaklida yozma ayirishni, keyin esa yangi darslik bo'yicha ayirmani topamiz.

**Masalan:**

$$\begin{array}{r} 725 \\ - 82 \\ \hline \end{array}$$

Ustun shaklida ayrilganda ham xuddi qo'shish amali kabi yana ayirmani hisoblashni birliklar, o'nliklar va yuzliklar ketma-ketligida bajaramiz va dastlab birliklardan boshlanadi.

Birlıklar xonasida kamayuvchi - 5, ayiruvchi - 2, ya'ni  $5 - 2 = 3$ ; O'nliklar xonasida

kamayuvchi - 2, ayiruvchi - 8. Bu jarayonda o'nliklar xonasida yetmayapti. Endi yuzlar xonasidan qarz olinadi va o'nlar xonasidagi 2 ni tasavvurda qo'shib, 12 dan 8 ni ayiramiz, ya'ni  $12 - 8 = 4$ . Yuzlar xonasidagi kamayuvchidan 1 ta qarz olganimiz hisobiga tasavvurda 7 dan 1 ni ayirib, 6 qolganligini o'quvchi yuzlar xonasiga yozadi. Ayirma quyidagicha chiqadi:  $725 -$

$$82 = 643.$$

Xuddi shu misolni yangi avlod darsligida berilgan og'zaki hisoblash metodikasi bo'yicha amalga oshiramiz.

$$725 - 82 =$$

Dastlab o'quvchi tasavvurda xona birliklariga ajratadi:

$$700 + 20 + 5$$

$$80 + 2$$


Tasavvurda 700 dan 100 ni kamaytirib, yuzlar xonasida 600, keyingi o'nlar xonasidagi 20 ga qo'shib, 80 ni ayiradi 40, birlar xonasidagi 5 va 2 ni ayirib 3 ni hosil qiladi va natija: 643.

## NATIJARLAR

Milliy o'quv dasturi asosida amaliyotga tadbiiq etilayotgan yangi 3-sinf matematika darsligidagi "Yuz ichida qo'shish va ayirish"ning og'zaki usuli o'quvchining hisoblash malakalarini rivojlantiradi hamda hisoblash darajasini avtomatizm darajasiga chiqaradi. O'quvchi kundalik hayotda, do'konda, oila davrasida yoki dars jarayonlarida va boshqa holatlarda hech kimga suyanmagan holda mustaqil o'z tasavvurida hisob ishlarini amalga oshiradi. Yozma hisoblash imkoniyati o'quvchida har doim ham bo'lavermaydi. Shu bilan birgalikda o'quvchida o'ziga ishonch bilan mustaqil hisob-kitob ishlarini amalga oshirish imkoniyati bo'ladi. Yanglishish yoki adashish holatlari kuzatilmaydi. Chunki inson hayotda ko'proq og'zaki, tasavvurda hisob ishlarini bajaramiz. Ayniqsa, yuz ichidagi sonlarni qo'shish va ayirishda yozma ustun shaklida hisoblash o'quvchining hisoblash malakalarining rivojlanishiga to'sqinlik qiladi va o'quvchi hisoblash jarayonida qog'oz va qalamga suyanib qoladi. Vaholanki yuz ichida qo'shish va ayirish amalini o'quvchi qog'oz va qalamsiz og'zaki hisoblay oladi.

Milliy o'quv dasturi asosida yaratilgan darslikdagi "Yuz ichida qo'shish va ayirish" mavzusi o'rgatilish jarayonida o'quvchilar individual xususiyatlarini rivolantirgan holda mustaqil ta'lim olish, darslikdagi mavzular integratsiyasini inobatga olgan holda o'quvchida kreativlikni shakllantirish hamda ongli ravishda hisob ishlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan

holda shakllar orqali raqamlar hosil qilish va hisoblashga oid misollar tuzib, tarqatma sifatida topshiriqlar berish mumkin. Bunda shakllar quyidagi sonlarni ifodalashi o'quvchilarga tushuntiriladi:



Endi ushbu shakllardan raqamlar hosil qilamiz va buni o'quvchilar bilan mustahkamlash uchun o'zlariga bir nechta bir, ikki, uch xonali raqamlar hosil qilish topshirig'ini beramiz:

$$\begin{array}{l}
 35 - \triangle \quad \triangle \\
 54 - \triangle \quad \square
 \end{array}$$

$$\begin{array}{l}
 643 - \triangle \quad \square \quad \triangle \\
 36 - \triangle \quad \square
 \end{array}$$

O'quvchiga mustaqil shakllardan raqamlar hosil qilish ko'nikmasini rivojlantirgandan so'ng, turli shakl ko'rinishidagi misollar beriladi.

**Masalan:**

$$\begin{array}{l}
 \triangle \triangle \circ + \triangle \circ \triangle = 633 \\
 \square \square \circ - \square \triangle \circ = 30 \\
 \triangle \square \square + \square \triangle = 589
 \end{array}$$

Shakllar orqali o'quvchilarga qo'shishga oid misollar yozilgan tarqatmalar va topshiriqlar berishning afzalliklari:

- Matematika fanida mavzulararo integratsiya kuzatiladi;
- O'quvchilarda shakllar va ularning tomonlari, burchaklari haqidagi bilimlari mustahkamlanadi;
- O'quvchilarning individual xususiyatlari rivojlanadi;
- O'quvchilarda axborotni tahlil qilish va xulosa chiqarish ko'nikmalari rivojlantiriladi;
- O'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalari rivojlantiriladi;
- O'quvchilarda yuz ichida qo'shish va ayirish haqidagi bilimlari rivojlantiriladi;
- O'quvchi diqati va xotirasi mustahkamlanadi.

**XULOSA**

Bugungi ta'lim tizimi jahondagi ta'lim eng rivojlangan (Finlandiya, Singapur, Angliya va h.k.) davlatlar tajribasi o'rganilgan holda xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan yangi avlod darsliklaridan foydalangan holda jahondagi boshqa o'quvchi-yoshlar bilan raqobatlasha oladigan, kuchli, bilimli, salohiyatli, raqobatbardosh avlodni tarbiyalash va ta'lim berishni maqsad qilgan. Shu maqsaddan kelib chiqqan holda har bir yosh avlod olingan bilimni qayerda, qachon va qanday foydalanishni anglab, anglamay egallash emas, balki har bir o'rgangan bilimni amaliyotda, kundalik hayotda foydalana olishni bilishi, tushunishi va anglashi zarur. Zero, Milliy o'quv dasturi kompetensiyaga asoslangan bo'lib, kompetensiyaga asoslangan ta'lim keng imkoniyatlar yaratadi:

- o'quvchilarga real hayotda muvaffaqiyatga erishish uchun zarur bo'lgan bilim va ko'nikmalarni yetarli darajada beradi

- o'quvchilar va o'qituvchilar uchun mavjud ta'lim yuklamalarini kamaytirishga qaratilgan

-kreativ fikrlash va amaliy ko'nikmalarini rivojlantirishda ta'lim berish metodologiyasini o'zgartirishga yo'naltirilgan.

## REFERENCES

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Yangi O'zbekiston strategiyasi 2022-yil
2. Boshlang'ich ta'lim jurnali 1-son 2022-yil yanvar
3. M.Jumayev. Boshlang'ich sinflarda matematika o'qitish metodikasi. Toshkent-2022
4. 3-sinf Matematika darsligi. Toshkent-2022
5. 3-sinf Matematika o'qituvchi kitobi. Toshkent-2022